

HOFIZ XORAZMIY LIRIKASIDA SHAXS KAMOLOTI: BADIY TAHLIL VA DIDAKTIK TALQIN

Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna,
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
shukurjonyeldashbayevna@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Hofiz Xorazmiy lirkasida shaxs kamoloti masalasi badiiy tahlil qilinadi hamda ularning didaktik talqini zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayoniga mos ravishda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Hofiz Xorazmiy, lirika, shaxs kamoloti, axloq, didaktika.

HOFİZ HOREZMİY'İN SÖZLERİNDE KİŞİLİK OLGUNLAŞMASI: SANATSAL ANALİZ VE DİDAKTİK YORUMLAMA

Kurbanova Shukurjon Yeldaşbayevna,
Urgenç Devlet Pedagoji Enstitüsü'nün bağımsız araştırmacısı

Özet. Bu makalede Hafız Harezm'in şairlerindeki kişisel gelişim konusu ele alınmakta ve bunların çağdaş eğitim sürecine uygun olarak didaktik yorumu incelenmektedir.

Anahtar kelimeler. Hâfız-ı Harezmî, şiir, kişisel gelişim, ahlak, didaktik.

ПЕРСОНАЛЬНОЕ ИСПОЛНЕНИЕ В ЛИРИКЕ ХАФИЗА ХОРЭЗМИ: ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ И ДИДАКТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Курбанова Шукурджон Елдашбаевна,
Независимый научный сотрудник Ургенчского
государственного педагогического института

Аннотация. В данной статье анализируется проблема развития личности в лирике Хафиза Хорезма и рассматривается их дидактическая интерпретация в соответствии с современным образовательным процессом.

Ключевые слова. Хафиз Хорезм, тексты песен, личностное развитие, нравственность, дидактика.

PERSONAL DEVELOPMENT IN THE LYRICS OF HAFIZ KHOREZMI: ARTISTIC ANALYSIS AND DIDACTIC INTERPRETATION

Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna,
independent researcher of the Urgench state pedagogical institute

Annotation. This article analyzes the issue of personal development in the lyrics of Hafız Khorezm and examines their didactic interpretation in accordance with the modern educational process.

Keywords. Hafız Khorezm, lyrics, personal perfection, ethics, didactics.

XIV-XV asrlar o'zbek adabiyoti tarixida badiiy tafakkur taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergan, adabiy tilning rivojlanishi va badiiy-estetik qarashlarning takomillashuvi jarayonida alohida o'rinn tutgan davr hisoblanadi. Mazkur davrda Atoyi [1, 14-15 б.], Mavlono Lutfiy [2, 71 б.], Gadoiy [3], Haydar Xorazmiy [4, 167 б.], Sakkokiy [5, 10-11 б.], Hofiz Xorazmiy [6, 4-5 б.] va Alisher Navoiy [7, 34-53 б.] kabi yirik adiblar turkiy tilda badiiy ijod qilish orqali nafaqat adabiy

til taraqqiyotiga, balki didaktik-estetik tamoyillarning shakllanishi va mustahkamlani-shiga ham beqiyos hissa qo'shdilar. Ularning ijodiy merosi Sharq adabiyotiga xos axloqiy-ruhiy poklanish, komil insonni tarbiyalash, hayotiy tajriba va hikmatlarni yuksak badiiy mahorat bilan ifodalash singari tamoyillar asosida yo'g'rilgan. Ayniqsa, Hofiz Xorazmiyning devoni XIV-XV asr Sharq adabiy tafakkuri kontekstida o'ziga xos badiiy-falsafiy mazmun kasb etgan, turkiy tilda yaratilgan yuksak poetik manba sifatida alohida ajralib turadi.

Hofiz Xorazmiy ijodiga oid ilmiy-tadqiqotlar mazmunida shoirdan qolgan adabiy merosning turkiy xalqlar adabiyoti, xususan, o'zbek mumtoz poeziyasi rivojida tutgan o'rni professor H.Sulaymonov [8, 6 b.] tadqiqotlariga asoslangan holda alohida ta'kidlanadi. Xususan, M.Sulaymonov Hofiz Xorazmiyning turkiy she'riyatdagi o'rnini xalqaro nuqtayi nazardan baholab, uning poetik merosini turkiy xalqlar va butun insoniyat uchun ilmiy ahamiyatga ega manba sifatida chuqur tadqiq etilgan [9, 527-530 b.]. H.Sanakulovesa shaxsiy kamolot, mehnat tarbiyasi va kasbga yo'naltirish masalalarida Hofiz Xorazmiy ijodining amaliy-pedagogik jihatlariga ko'rsatib o'tgan [10, 18 b.]. I.Haqqulov [11] va M.Inog'omxo'jayeva [12] o'z maqolalarida Hofiz Xorazmiyning badiiy uslub xususiyatlari, tashbeh san'ati, poetik obrazlar tizimiga e'tibor qaratganlar.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Hofiz Xorazmiy ijodiga bo'lgan qiziqish faqat o'zbek ilmiy-adabiy muhitidagina emas, balki xalqaro miqyosda ham sezilarli darajada namoyon bo'lmoqda. Xususan, turkiy tilli xalqlar, ayniqsa Turkiya adabiyotshunoslari orasida Hofiz Xorazmiy ijodiga bo'lgan ilmiy e'tibor yildan-yilga ortib bormoqda. Bu borada R.Toparli [13], A.Ustuner [14], A.Karahan [15] va boshqa tadqiqotchilarning izlanishlari e'tiborga molikdir.

Hofiz Xorazmiyning turkiy tildagi serqirra ijodiy faoliyati, xususan, uning devonida aks etgan shaxs kamoloti, ma'naviy yetuklik va didaktik g'oyalarning zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlikdagi talqini asosiy ilmiy-nazariy mezon sifatida qaralishi zarur. Shoir o'zbek adabiyoti tarixida to'qqiz janrda ijod qilgan, badiiy tafakkur doirasida ishq va ma'rifatni uyg'unlashtirgan noyob estetik qarashlar tizimini shakllantirgan ijodkordir.

Didaktik talqin, kontekstual yondashuv, qiyosiy-tipologik adabiy tahlil hamda zamonaviy ta'lism nazariyalari asosida integrativ metodlarga tayangan holda shoir devonining turli qirralarini ochib berish oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir. Shuningdek, Hofiz Xorazmiyning didaktik-estetik qarashlari asosida shaxs kamoloti tamoyillarining zamonaviy ta'lism jarayonlariga tatbiq etilishi — ilmiy izlanishning yangi yo'naliishlaridan biri sifatida o'rganilishi, yosh avlodni nafaqat bilimli, balki ma'naviy barkamol, axloqiy yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Zero, shoir badiiy tafakkurida aks etgan komillik timsoli va unga olib boruvchi ruhiy-ma'naviy yo'z zamonaviy pedagogik innovatsiyalar bilan uyg'unlashganda, yangi davr tarbiyaviy konsepsiolarining asosiy tarkibiy qismiga aylanishi mumkin.

Hofiz Xorazmiy lirikasida kuzatiladigan falsafiy-didaktik ohang, ayniqsa, uning qit'alarida yorqin namoyon bo'ladi. Shoir mazkur janr orqali shaxs kamolotini moddiy qadriyatlar bilan hamohang ma'naviy qadriyatlar (ichki xotirjamlik va boy tafakkur) bilan bog'laydi. U hayotiy voqelikni realistik yondashuvda talqin etib, insoniyat mavjudligidagi noaniqlik va o'zgaruvchanlik holatlarini chuqur badiiy-falsafiy tahlil etadi. Shoirning fikricha, komillik — faqat moddiy ne'matlarga emas, balki jamiyatda ijobiy iz, ezgu nom qoldirishga intilish bilan belgilanadi.

Kom-i jonni tilama, ey oqil,

Chun bu olamning ichra yo'qdur kom.

Kom agar bo'lsa erdi olamda,

Topg'ay erdi tan ichra jon orom.

Besaranjom ko'runur ishlar,

Chun ko'runmas jahon ishində nizom.

Oqidbat chun jahonda qolmasmiz,

Yaxshi uldurki, yaxshi qolsa nom. [16, 294 b.]

Hofiz Xorazmiy devonida o'rin olgan bir tarkibbandda aqlni shaxs kamolot masalasi markazga olib chiqib, uni ideal shaxs obrazini yorituvchi asosiy badiiy-falsafiy mezon sifatida talqin etadi. Uning uchun aqlni faqat bilish quroli emas, balki shaxsning ijtimoiy-axloqiy yetukligi,

ma'naviy yuksakligi va jamiyatdagi o'rni belgilaydigan mezon hamdir. Aql timsolining poetik modellashuvi orqali u komillik sari intilayotgan ideal inson obrazini yaratadi. Shoir poetik tasvirda aql hayotiy muammolarni hal etuvchi kuch, inson izzatini anglatuvchi mezon, shaxsiy taraqqiyotda yetakchi kuch sifatida qiyosiy-estetik obrazlar orqali ifodalanadi.

*Zotinda bor zohir o'shaning kamol-i aql,
Ul oftobu yo'qdur anda zavol-i aql.
Miftoh-i mushkulot aning aqli bo'lg'ali,
Qoldi tamom hal bo'lubon qilu qol-i aql.
Tegmas kamol-i hurmatina hech turlu fikr,
Yetmas jamol-i izzatina ham majol-i aql.
Tang to'sh anga jahonda bo'la bilmagi bu dam,
Dona kishiga ko'runur asri muhol-i aql.
Hadd-i kamol shohliqig'a yetishmagay,
Mahsharga tegru sayr etar ersa xayol-i aql.
Garchi farog'i bor jahondin, vale bu dam,
Yodindin o'zga yo'qturur ishtig'ol-i aql.
Oliyjanob eshigini ko'rmagi erur
Shomu saboh jonu ko'ngul birla fol-i aql.
Gar dast bersa tiri bo'lub xizmat aylamak,
Bo'lg'ay rikobida o'shaning Ar davon. [16, 268 b.]*

Shuningdek, Hofiz Xorazmiy g'azallarida aql va ishq o'rtasida ziddiyatlar mavjud. Ular o'rtasidagi bunday dialektik qarama-qarshiliklarni shoir yuksak poetik mahorat bilan tasvirlaydi. Devonda asosan aql insonni ehtiyyotkorlikka, fikr yuritishga undasa, ishq esa shartsiz fidoyilik, sadoqat, hatto o'zlikdan kechish orqali komillik sari eltuvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Shoirning nazarida aqlning chegaralanganligi, ishqning esa mutlaq va cheksiz tabiatibor, shu sababdan devonda ular bir yo'lda murosa topolmaydilar. Bu fikr, o'z navbatida, inson shaxsiy kamoloti uchun ichki ziddiyatlarni yengish, ya'ni aql va ishqni uyg'unlashtirish zarurligi anglatadi.

*Aql ila ishq hargiz tuz kelmadi bu yo'lda,
Oshiq qoshinda sig'mas chun zohid-i muvasvis. [8; 259-b.]*

Bunday yondashuvlar Hofiz Xorazmiyning aql va ishq o'rtasidagi murakkab ziddiyatni chuqur falsafiy badiiy tahlilga tortgani, shaxsiy kamolotga olib boruvchi ichki kechinmalarni yuksak poetik obrazlar orqali ifodalaganuni turkiy tilda ijod qilgan yetuk ijodkor sifatida e'tirof etishga yana bir bora asos yaratadi.

Hofiz Xorazmiy ijodi, xususan, uning lirik merosi – o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida shaxs kamoloti, axloqiy tarbiya va ma'naviy yuksalish g'oyalarni badiiy-falsafiy asosda ifodalagan yuksak estetik tizim sifatida alohida e'tirofga loyiqidir. Shoirning qit'a, tarkibband va g'azallarida o'z ifodasini topgan aql va ishq o'rtasidagi murakkab ziddiyat, hayotiy noaniqliklar fonida komil inson timsolining shakllanishi, uning devonida nafaqat poetik go'zallik, balki chuqur ma'naviy-axloqiy mazmun ham mujassam ekanini ko'rsatadi.

Mazkur ilmiy tahlillar asosida quyidagi taklif va xulosalarni ilgari surish mumkin:

- didaktik-estetik merosni o'quv jarayonlariga tatbiq etish;
- interdisiplinar yondashuv asosida tadqiqotlar olib boorish;
- yoshlar ma'naviyatini mustahkamlashda ijodiy merosdan foydalanish;
- poetik merosni zamonaviy innovatsion metodlar orqali ommalashtirish;
- xalqaro miqyosda integratsion ilmiy loyihalarni shakllantirish.

Shoir devonida ilgari surilgan axloqiy-ruhiy kamolot, aql va ishq dialektikasi, shaxsiy o'zgarish va komillik sari intilish kabi g'oyalarni "Pedagogika nazariyasi va tarixi", "Falsafa tarixi", "Etika", "Tarbiya" kabi fanlar orqali ta'lif tizimiga kiritish, yoshlarning ma'naviy-axloqiy yetukligini shakllantirishga xizmat qiladi. Interdisiplinar yondashuv asosida adabiyotshunoslik, falsafa, psixologiya va pedagogika fanlari kesimida bu merosni tahlil qilish esa yangi ilmiy izlanishlar uchun boy nazariy manba bo'la oladi. Hofiz Xorazmiy ijodini zamonaviy innovatsion

uslublar – elektron darsliklar, podkastlar, multimedia vositalari va mobil ilovalar orqali targ‘ib etish, shuningdek, badiiy matn asosidagi interaktiv mashg‘ulotlar orqali yoshlar ongiga singdirish dolzarbdir. Shoир ijodining xalqaro ahamiyatini inobatga oлgan holda, ayniqsa, turkiy tilli xalqlar miqyosida qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslik asosida integratsion ilmiy loyihalarni shakllantirish, doktorantura va postdoktorantura bosqichlarida chuqur tadqiqotlar olib borish istiqbolli yo‘nalishlardan biri sanaladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Рафиддинов С. С. Атойининг поэтик маҳорати: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Т., 1993. – 156 б.
2. Eshonqulov H.J. B.Valixo‘jayev nuktadonligining ayrim jihatlari xususida. // Akademik Botirxon Valixo‘jaev va mumtoz adabiyotshunoslik mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plam. – Samarqand, 2022. – 408 b.
3. Rajabova M.B. Gadoiy – turkiy shoир. // Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT , 2 (11), 2022. – 20–23 b.
4. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Т.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2006. – 528 b.
5. Israilov G.B. Sakkokiy adabiy merosi va poetik mahorati: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori(PhD) ... diss. avtoreferati. – Jizzax., 2024., – 55 b.
6. Сулаймонов М.Ю. Ҳофиз Хоразмий ва ўзбек лирик шеъриятининг ривожи: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореферати. – Т., 1996. - 23 б.
7. Норов Т.О. Алишер Навоий инсонпарварлик қарашларининг мустақил Ўзбекистон ижтимоий-сиёсий ҳаёти билан уйғунлиги: Фалсафа фан. бўйича фалсафа доктори(PhD) ... дисс. – Т., 2019. – 159 б.
8. Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 1-китоб. - Т.: ЎзКПМК, 1981. - 304 б.
9. Suleymanov M.Y. The role of Hafiz Khorezmi in Turkish poetry // ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (73), 2019. – 527-530 p.
10. Санакулов X. Р. Кичик ёшдаги мактаб ўқувчиларининг касб-хунарга қизиқишиларини меҳнат анъаналари асосида тарбиялаш: Пед. фанлари номзоди ... дисс. – Т., 2001. – 146 б.
11. Ҳаққулов И. Фазал гулшани. - Т.: Фан, 1991. – 38 б.
12. Иноғомхўжаева М. Ҳофиз Хоразмий лирикасида ташбех // Адабий мерос. - Т., 1982. 2-сон., – 82-85 б.
13. Toparlı, Recep. Hâfız-ı Harezmî'nin Sultan İbrahim'in Ölümü Üzerine Yazdığı Mersiye // Marmara. Türkük Araştırmaları Dergisi, 8, 1997, 511-524 s.
14. Üstüner, Ahat. “Hârezmî Hâfız Divanında Türk Adı // Turkish Studies 9(6), 2014. Ankara. – 1107-1116 s.
15. Karahan Akarturk. Hafiz-i Harizmi // Tarihte Müslümanlar №5, 2020, Ankara. – 244-248 s.
16. Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 2-китоб. - Т.: ЎзКПМК, 1981. - 312 б.